



SOLIQ IMTIYOZLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Qurbonov Rustam Radjapovich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,

Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası o'qituvchisi

rqurbonov905@gmail.com

+998 93 791 71 55

Annotatsiya. Ushbu tezisda soliq imtiyozlarining iqtisodiy mohiyati, ularning davlat soliq siyosatidagi o'рни hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari tahlil qilinib, ularni qo'llash natijadorligini aniqlash mezonlari ko'rib chiqilgan. Soliq imtiyozlarini taqdim etishda ularning byudjetga ta'siri, investitsion faollikni rag'batlantirishdagi roli va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq imtiyozlari, soliq siyosati, iqtisodiy samaradorlik, soliq ma'murchiligi, investitsiyalar, soliq xarajatlari, byudjet daromadlari, rag'batlantirish mexanizmi.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vositalari orasida soliq siyosati muhim o'rin tutadi. Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai bo'lishi bilan bir qatorda, iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantirish va muvofiqlashtirish vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtai nazardan, soliq imtiyozlari soliq siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish, investitsion faollikni oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat turlarini rag'batlantirishga xizmat qiladi.



Biroq, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko‘payib ketishi davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga, soliqqa tortish tizimida tenglik tamoyilining buzilishiga hamda soliq ma‘murchiligi murakkablashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini muntazam ravishda baholab borish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Soliq imtiyozlarining iqtisodiy mohiyati

Soliq imtiyozlari – bu soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun qonunchilik asosida belgilangan yengilliklar bo‘lib, ular soliq stavkalarini kamaytirish, soliq bazasini qisqartirish, soliqlarni to‘lash muddatlarini kechiktirish yoki ayrim soliqlardan to‘liq ozod etish shakllarida namoyon bo‘ladi.

Soliq imtiyozlarining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- investitsion faoliyatni rag‘batlantirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- innovatsion faoliyatni rivojlantirish;
- eksport salohiyatini oshirish;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash;
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish.

Soliq imtiyozlari fiskal maqsadlardan tashqari, tartibga soluvchi va rag‘batlantiruvchi funksiyalarni amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash zarurati

Soliq imtiyozlarini taqdim etish natijasida davlat ma‘lum miqdordagi byudjet daromadlaridan voz kechadi. Shuning uchun ushbu yo‘qotishlar evaziga iqtisodiyotda qanday natijalarga erishilganligini aniqlash muhim hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlikni baholash quyidagi savollarga javob topishga xizmat qiladi:

- taqdim etilgan imtiyozlar o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishdimi;
- imtiyozlar natijasida investitsiyalar hajmi qanchaga oshdi;
- yangi ish o‘rinlari yaratildimi;



- ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyati qay darajada kengaydi;
- byudjet daromadlarining kamayishi iqtisodiy o‘shish hisobiga qoplandimi.

Mazkur savollarga ilmiy asoslangan javob berish soliq siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Soliq imtiyozlarini baholash mezonlari

Soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Fiskal samaradorlik

Ushbu ko‘rsatkich imtiyozlar natijasida byudjetning yo‘qotgan daromadlari va iqtisodiy faollikning ortishi hisobiga kelib tushgan qo‘shimcha daromadlarni o‘zaro taqqoslash orqali aniqlanadi.

2. Investitsion samaradorlik

Mazkur mezon soliq imtiyozlari ta’sirida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining o‘shishini baholashga imkon beradi.

3. Ijtimoiy samaradorlik

Imtiyozlarning bandlik darajasini oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish hamda ijtimoiy himoyani kuchaytirishga ta’siri tahlil qilinadi.

4. Iqtisodiy samaradorlik

Ishlab chiqarish hajmi, korxonalarining rentabellik darajasi, eksport hajmi va qo‘shilgan qiymat o‘shishi kabi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi.

5. Ma’muriy samaradorlik

Soliq imtiyozlarini qo‘llash bilan bog‘liq ma’muriy xarajatlar va soliq ma’urchiligining murakkablik darajasi o‘rganiladi.

Soliq imtiyozlarini baholashning xalqaro yondashuvlari Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, soliq imtiyozlari doimiy ravishda monitoring va tahlil qilinadi. Ko‘pgina mamlakatlarda “soliq xarajatlari” (tax expenditures) konsepsiyasidan foydalaniladi.



Soliq xarajatlari deganda, davlat tomonidan turli imtiyozlar berilishi natijasida byudjetga kelib tushmagan mablag‘lar tushuniladi. Mazkur yondashuv quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- imtiyozlarning haqiqiy qiymatini aniqlash;
- samarasiz imtiyozlarni bekor qilish;
- davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish;
- soliq siyosatining shaffofligini ta’minlash.

Shu sababli, soliq imtiyozlari bo‘yicha muntazam hisobotlar tayyorlash va ularning natijadorligini baholash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

2021–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosati iqtisodiyotni rag‘batlantirish, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda soliq ma’urchiligini takomillashtirishga qaratildi. Ushbu davrda umumdavlat soliqlarining aksariyati bo‘yicha bazaviy stavkalar barqaror saqlangan bo‘lsa-da, ayrim soliqlar bo‘yicha imtiyozlar va tartiblar qayta ko‘rib chiqildi.

2023-yildan boshlab QQS stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirildi. Mazkur chora tadbirkorlik subyektlari soliq yukini kamaytirish va ularning aylanma mablag‘larini ko‘paytirishga qaratildi. Bundan tashqari, eksport operatsiyalari uchun 0 foizlik stavka saqlab qolindi. QQSni qaytarish mexanizmi bosqichma-bosqich soddalashtirildi. 2025-yildan QQS stavkasi 12 foiz darajasida saqlanib, uni 2028-yilgacha o‘zgartirmaslik belgilandi.

Asosiy imtiyozlar:

- eksport operatsiyalariga 0 foiz stavka;
- ta’lim muassasalari uchun olib kiriladigan ayrim jihozlarni QQSdan ozod qilish;
- davlat mulkini realizatsiya qilish bo‘yicha ayrim operatsiyalarni QQSdan ozod etish.

Foyda solig‘i bo‘yicha o‘zgarishlar



2021–2025-yillar davomida foyda solig'ining bazaviy stavkasi 15 foiz miqdorida saqlab qolindi. Shu bilan birga, ayrim tarmoqlar uchun differensial stavkalar qo'llanildi.

Asosiy imtiyozlar:

- erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun foyda solig'i bo'yicha preferensiyalar;
- elektron tijorat subyektlari uchun pasaytirilgan stavkalar;
- nashriyot-matbaa faoliyatidan olingan foydani muayyan muddatgacha soliqqa tortishdan ozod qilish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilgan yuridik shaxslarga imtiyozlar.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JShDS)

Mazkur davrda JShDS stavkasi 12 foiz darajasida saqlanib qoldi. Soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida aholi daromadlariga tushadigan soliq yukini oshirmaslik tamoyili qo'llanildi.

Imtiyozlar:

- ayrim kompensatsiya to'lovlari va ijtimoiy xarakterdagi daromadlarni soliqqa tortishdan ozod qilish;
- ta'lim va ipoteka kreditlari bilan bog'liq ayrim chegirmalar.

Ijtimoiy soliq bo'yicha o'zgarishlar

Ijtimoiy soliqning bazaviy stavkasi 12 foiz darajasida saqlab qolindi. Byudjet tashkilotlari uchun esa 25 foizlik stavka amal qildi.

Asosiy imtiyozlar:

- ✓ kam ta'minlangan oilalar a'zolarini ishga qabul qilgan tadbirkorlik subyektlariga vaqtinchalik yengilliklar;
- ✓ ayrim hududlarda yangi tashkil etilgan korxonalar uchun imtiyozlar.

Aksiz solig'i bo'yicha o'zgarishlar



Aksiz solig‘i stavkalari har yili inflyatsiya darajasi va fiskal ehtiyojlardan kelib chiqib indeksatsiya qilindi. Tamaki, alkogol va neft mahsulotlari asosiy aksiz to‘lanadigan tovarlar sifatida saqlanib qoldi. 2025-yildan mobil aloqa xizmatlari aksiz solig‘idan ozod qilindi.

Imtiyozlar va o‘zgarishlar:

- ✓ ayrim import qilinadigan xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar bo‘yicha preferensiyalar;
- ✓ ichki ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar uchun stavkalarni bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish.

Yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq

Mazkur soliq bo‘yicha stavkalar qazib olinadigan foydali qazilma turiga qarab belgilanadi. Oltin, mis, uran, tabiiy gaz va neft uchun alohida stavkalar qo‘llaniladi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- ✓ tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish;
- ✓ strategik resurslar bo‘yicha davlat manfaatlarini ta‘minlash.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari foydalanuvchi toifasi hamda suv manbalariga qarab differensial tarzda belgilanadi. 2025-yilda ushbu stavkalar indeksatsiya qilindi.

2021–2025-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida umumdavlat soliqlari bo‘yicha olib borilgan siyosat soliq stavkalarining nisbatan barqarorligi va maqsadli soliq imtiyozlarining keng qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi. Xususan, QQS stavkasining pasaytirilishi, foyda solig‘i stavkasining barqaror saqlanishi, ijtimoiy soliq va JShDS stavkalarining o‘zgarmasligi soliq tizimining prognoz qilinuvchanligini ta‘minladi.

Shu bilan birga, investitsiyalarni rag‘batlantirish, elektron tijoratni rivojlantirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash hamda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini



joriy etishga qaratilgan soliq imtiyozlari umumdavlat soliqlarining tartibga soluvchi funksiyasini kuchaytirdi. Mazkur islohotlar natijasida soliqlar nafaqat fiskal instrument, balki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning samarali vositasi sifatida ham namoyon bo'ldi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda soliq tizimini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Biroq, ayrim hollarda soliq imtiyozlarining kutilgan natijalarni bermasligi kuzatilmoqda. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

- imtiyozlar berish mezonlarining aniq belgilanmaganligi;
- ularning amal qilish muddati bo'yicha cheklovlarning yetarli emasligi;
- monitoring tizimining sustligi;
- imtiyozlardan maqsadsiz foydalanish holatlarining mavjudligi;
- natijadorlik ko'rsatkichlarining oldindan belgilanmasligi.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Har bir soliq imtiyozi bo'yicha aniq iqtisodiy maqsadlar belgilash;
- Imtiyozlar samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqish;
- Soliq xarajatlari to'g'risidagi hisobotlarni amaliyotga joriy etish;
- Samarasiz imtiyozlarni bosqichma-bosqich bekor qilish;
- Raqamli texnologiyalar asosida monitoring tizimini takomillashtirish;
- Imtiyozlar berishda ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini kuchaytirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, soliq imtiyozlari davlatning iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatishining muhim fiskal va tartibga soluvchi instrumentlaridan biri hisoblanadi. Ular investitsion faollikni rag'batlantirish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish hamda aholi



bandligini ta'minlash kabi strategik vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, soliq imtiyozlari davlatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishiga xizmat qiluvchi samarali iqtisodiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq, soliq imtiyozlarining qo'llanilishi davlat byudjeti daromadlarining ma'lum qismini qisqartirishi, soliqqa tortish tizimida neytrallik tamoyilining buzilishiga sabab bo'lishi hamda resurslar taqsimotida nomutanosibliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, soliq imtiyozlarini joriy etish va ularning amal qilish muddatlarini belgilash jarayonida mazkur imtiyozlarning iqtisodiy samaradorligini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida muntazam ravishda baholab borish muhim ahamiyatga ega. Bunda fiskal samaradorlik, investitsion faollikka ta'siri, ishlab chiqarish hajmining o'sishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, eksport salohiyatining kengayishi hamda ijtimoiy natijadorlik kabi mezonlardan kompleks tarzda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro tajriba tahlili soliq imtiyozlari samaradorligini baholashda **soliq xarajatlari (tax expenditures)** konsepsiyasidan foydalanishning yuqori natijadorligini ko'rsatmoqda. Mazkur yondashuv davlat tomonidan taqdim etilgan imtiyozlar natijasida byudjetga kelib tushmagan mablag'lar hajmini aniqlash, ularning iqtisodiy samarasini baholash hamda kutilgan natijalarni bermayotgan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish imkonini yaratadi. Shu bois, soliq imtiyozlarini baholash tizimini takomillashtirishda xalqaro amaliyotda o'zini oqlagan uslubiy yondashuvlarni milliy sharoitlarga moslashtirish zarur.

O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlari tizimini yanada takomillashtirish, ularni taqdim etishning aniq mezonlarini ishlab chiqish, imtiyozlarning maqsadli yo'naltirilganligini ta'minlash hamda ularning natijadorligini baholashning institutsional mexanizmlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, soliq xarajatlari monitoringi tizimini joriy etish, soliq imtiyozlarining samaradorligini muntazam tahlil qilib borish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri



yuzasidan ochiq hisobotlar tayyorlash hamda samarasiz imtiyozlarni bosqichma-bosqich optimallashtirish soliq siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, soliq imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, byudjet barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi. Natijada, davlatning fiskal manfaatlari bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy manfaatlari o'rtasida muvozanatga erishiladi, qulay investitsion muhit shakllanadi hamda mamlakatning barqaror va inklyuziv iqtisodiy o'sishi uchun mustahkam institutsional asoslar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent- 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5837-son farmoni
3. O'zbekiston Respublikasining 2026 yil 17 apreldagi “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga soliq va tadbirkorlik sohasidagi huquqiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi o'rq-1131-sonli qonuni
4. <https://soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy sayti.
5. <https://stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari.